

Navoiy viloyati statistika



Boshqarmasi

2018 yil yanvar-dekabr oylarida

QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
2004,6 mlrd. so`m

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **29,3 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –
34,8 %

Norasmiy sektor ulushi –
35,9 %



Viloyatda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami 2004,6 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur`ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 587,9 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,3%ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 186,7%ni tashkil etdi

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari qurilish ishlari hajmining 34,8% yoki 696,9 mlrd.so`mga to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 35,9% yoki 719,8 mlrd.so`mga to`g`ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5%ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

**hajmi -
587,9 mlrd.so`m**

**o'sish sur`ati -
186,7 %**

ulushi - 29,3 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

**hajmi -
696,9 mlrd.so`m**

**o'sish sur`ati -
105,5 %**

ulushi - 34,8 %


Norasmiy sektor

**hajmi -
719,8 mlrd.so`m**

**o'sish sur`ati -
122,5 %**

ulushi - 35,9 %

2018yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 87,1%ni




tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,9% punktga ko'paydi. Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 7,1 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7% punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 7,1 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7% punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,8% to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 2,2% punktga kamaydi.



2018 yil yanvar-dekabr oyida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



2017 yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 461,9 mlrd.so'm, ulushi 23,0%ni tashkil etdi

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar qurilish ishlari hajmi 564,7 mlrd.so'mni, ulushi 28,2%ni va norasmiy sektorning 719,8 mlrd.so'mni ulushi 35,9 %ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabrida faoliyat turlari

bo'yicha qurilish ishlari,%

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 23,0 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 28,2 %
- Norasmiy sektor - 35,9 %

Fuqarolik ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 5,1 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 2,0 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar- 5,8 %

Fuqarolik obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 5,1%ni tashkil etdi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 2,0%ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 5,8%ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo`yicha qurilish ishlari mln.so`m**

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi obyektlari	Ixtisoslashti -rilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	2004591,7	1746447,6	141582,6	116561,5
Navoiy shahar	389669,3	330231,0	26333,4	33105,0
Zarafshon shahar	486626,6	439256,3	45933,5	1436,8
tumanlar:				
Karmana	275236,4	230516,6	14340,2	30379,6
Konimex	25641,4	24251,9	-	1389,5
Qiziltepa	315491,0	240583,3	45592,7	29315,0
Navbahor	127055,8	120284,1	523,9	6247,8
Nurota	126286,1	117914,5	5097,6	3274,0
Tomdi	2540,1	2540,1	-	-
Uchquduq	28127,5	27367,6	-	759,9
Xatirchi	227917,4	213502,2	3761,3	10653,9

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha

qurilish ishlari tarkibi, o`sish sur`ati %



Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 696,9 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 34,8%) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5%ga oshdi.


Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 587,9 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 29,3%ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 186,7%ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 35,9%ni yoki 719,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5%ni tashkil etdi.



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha Zarafshon shahri hududdagi qurilish yirik pudrat tashkilotlari hajmining 21,8%ini tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11,0 marta qurilish ishlari ko`p bajarilgan, Qiziltepa

Hududlarda qurilish ishlarining o`sish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



tumanida mos ravishda, 1,6% va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 marta qurilish ishlari kam bajarilgan.



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Tomdi tumani va Uchquduq tumani 0,1% va 1,4%ini tashkil etdi, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 marta qurilish ishlari kam bajarilgan. Nurota, Navbahor tumanlarida mos ravishda, 6,3% va 6,3%ini tashkil etib viloyatining o'sish sur`atiga keskin ravishda o'z ta`sirini ko`rsatmoqda.



Navoiy viloyati

Qurilish ishlaringning pudrat tashkilotlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Zarafshon (237,4) shahrida kuzatildi.


- “Auminzo-Amantay” konida oltin-ma'danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);
- “Amudaryo-Zarafshon” suv o'tkazgichining 3-bo`ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;
- “Ko'kpatas” va “Daugiztau” konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish ishlari joriy yilda ham davom etirilmoqda .



Mulkchilik shakllari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1492,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 74,4 foizini tashkil qildi. Joriy davrda Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 2,5 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 foizga kamaydi. Karmana tumani bo'yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 12,4 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,6 foizga ko'paydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Xatirchi va Qiziltepa tumanida 100,0 foizni tashkil qildi

Hududlar kesimida qurilish ishlari, %





Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 512,6 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 25,6 foizini tashkil qildi. Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari



hajmida davlat sektorining ulushi 21,8 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 11,0 foizga oshdi.

O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlarda arzon ko'p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g'risida»gi PQ-2660 sonli qaroriga asosan viloyatda 2018 yil uchun mazkur namunali uylar bo'yicha qurilish ishlari amalga oshirilib o'z egalariga topshirildi.



**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bulimi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Fayzullaev

Aloqa telefonи:

(0379) 223-54-73